

**MAKEDONIYALIK ALEKSANDRNING
HAYOTI VA SIRLI O`LIMI**

Matyoqubova Gulnora Ollabergan qizi

Urganch Davlat Unversiteti

Ijtimoiy- Iqtisodiy fanlar fakulteti

Tarix (mintaqalar va yo`nalishlar bo`yicha)

Yo`nalishi 1-bosqich talabasi

Annatsiya: *Ushbu maqola Makedoniyalik Aleksandirning hayoti hamda uning sirli o`limi haqida ma`lumotlar berib o`tadi. Maqolada aytib o`tilgan faktlarning barchasi tarixiy dalillarga asoslangan. Bu maqola orqali ko`plab qiziqarli ma`lumotlarga ega bo`lishingiz mumkin.*

Kalit so`zlari: *Makedoniyalik Aleksandr, otasi Filipp, onasi Olipiada, rafiqasi Roksana, ustoz Aristotel, Lashkarboshisi Ptolomey Lag, sarkardalari karan va Farrux.*

Аннотация: *В этой статье представлена информация о жизни Александра Македонского и его загадочной смерти. Все факты, упомянутые в статье, основаны на исторических свидетельствах. Из этой статьи вы сможете получить много интересной информации.*

Ключевые слова: *Александр Македонский, отец Филипп, мать Олипида, жена Роксана, учитель Аристотель, полководец Птолемей Лаг, полководцы Каран и Фаррух.*

Abstrakt: *This article provides information about the life of Alexander the Great and this mysterious death. All the facts mentioned in the article are based on historical evidence. You can get a lot of interesting information through this article.*

Key words: *Alexander of Makedonia, father Philipp, mather Olipida, wife Kaxana, teacher Aristotle, cammander Ptolomey Lag, cammanders Karan and Farrukh*

Aleksandr turli tarix va madaniyatga ega xalqlarning yetakchisi bo'lgan. Ba'zida mahalliy odatlar va dinini tushunmagani bois uning boshqaruvi omadsiz kechgan. Zamonaviy bosqichda Aleksandrning G'arb va Sharq o'rtasida ko'prik qurishga bo'lgan urinishlaridan ko'plab darslar chiqarish mumkin.

Aleksandrni kim va qachon birinchi marta buyuk deb ataganini bilmaymiz. Aftidan, bu uning tirikligida sodir bo'lmagan. Tarixchilarning hisoblashicha, uni ilk bor eramizdan oldingi I asrda Rim komediyasida "buyuk" deyishgan. Ushbu komediyada Magnum ismi qo'llanilgan, bu lotinchada "buyuk" degani. Eramizdan oldingi 323-yilda vafot etguniga va eramizning I asrga qadar uni "buyuk" deya ta'riflash boshlangan.

Taxminlarga ko'ra, rimliklarning bunday deyishiga Aleksandr hukmronligi davrida o'limlar sonidan kelib chiqilgan: g'olib rimlik sarkarda Rim ko'chalari bo'ylab olamon orasidan tantanali yurib boriladigan taqdirlash marosimiga qadar 5 ming nafar dushmani o'ldirishi kerak bo'lgan. Aleksandr esa o'z yurishlarida yuz minglab insonlar umriga zomin bo'lgan, hozirgi Afg'oniston va Hindiston hududida butun boshli qabilalarni qirib tashlab, haqiqiy genotsid uyushtirgan. Agarda Aleksandr bugungi zamonda yashaganida uni harbiy jinoyatlari uchun tribunalga yuborgan bo'lishardi, ammo antik davrda uning harbiy g'alabalari strategik daho sifatida baholangan va qurbonlar sonining ko'pligi rimliklarni o'ziga jalb etgan.

Aleksandr favqulodda qobiliyatli hukmdor edi. Uning qo'l ostidagi ayrimlar xuddi Xudoga sig'ingan kabi uning oldida tiz cho'kkan. U juda yosh — 33 ga to'lmay vafot etgan bo'lsa-da, ko'plab ishlarni amalga oshirishga ulgurgan. Ammo uning buyukligi faqat harbiy karyerasiga bog'liq. Aleksandr harbiy strategiya va taktikada daho bo'lgan. Qayerga yurish qilmasin o'zining askarlaridan ko'proq qo'shinga duch kelgan, biroq doim g'alaba qozongan. Aleksandr bir vaqtning o'zida shoh bo'lish bilan birga, mohir sarkarda, siyosatchi, davlat arbobi, diplomat va xalq yetakchisi funksiyalarini bajarardi.

Aleksandr hayotidagi eng muhim inson — bu uning otasi Filipp II Makedonskiydir. O'z podshohligi uchun qilgan ishlar nuqtayi nazaridan qaraladigan bo'lsa, Filipp Aleksandrdan yaxshiroq shoh edi. Aleksandrdan farqli o'laroq u

o'limiga qadar oddiy makedon jangchisiligicha qolgan. Filipp Aleksandr kabi ulkan imperiyani egallamagan, ammo shoh sifatida xalqining yaxshi yashashi uchun majburiyatlarini bajargan. Antik davrdagi ayrim tarixchilar uni Aleksandrdan yaxshiroq deya hisoblagan.

Filipp eramizdan oldingi 359-yilda taxtga o'tirgan vaqtda Makedoniya ijtimoiy va madaniyat borasida qoloq edi. Uning na iqtisodiyoti, na tayyorgarlik ko'rgan muntazam armiyasi bo'lgan, davlat harob holatda edi. 23 yillik boshqaruvi davomida u mustahkam armiyani tuzgan, keyinroq Aleksandr shu armiya yordamida Osiyoni qo'lga kiritgandi. Filipp II tomonidan o'tkazilgan iqtisodiy islohotlar Makedoniyani gullab-yashnaydigan podshohlikka aylantirgan, keyin esa butun Gretsiya bo'ylab chegaralarini uzaytirgan. Aynan Filipp Gretsiyani egallab bo'lganidan keyin Fors imperiyasiga hujum qilishni rejalashtirgan, ammo buni boshlashdan bir necha kun oldin o'ldiriladi. Shunday qilib, Fors imperiyasiga hujum rejasi Aleksandrga tegishli bo'lmagan — u Filippdan o'zib ketish maqsadida aqlbovar qilmas yurishlarni amalga oshirishga kirishgan. Aleksandrning barcha yutuqlarga erishishiga otasidan qolgan barqaror va mustahkam podshohlik hamda qudratli armiya xizmat qilgan.

Aleksandr bolaligidan yuqori intellekt sohibi edi. 6 yoki 7 yoshida lirada kuy chala olgan, katta yoshli insonlar bilan turli mavzularda suhbatlar qurgan. U butun grek adabiyotini o'qib chiqqan, Gomer eng sevimli yozuvchisi edi. Aleksandr 14-16 yoshga to'lganida Aristotel unga ustozlik qila boshlagan. Ammo baribir Aleksandrga ko'p ta'sirni Aristotel emas, balki otasi Filipp o'tkazgan. Aleksandr hayotining katta qismi davomida unga taqlid qilishga uringan, ulg'ayib shaxsiy harbiy muvaffaqiyatlarga erishganidan keyin Filippdan o'zib ketishni istaydi.

Har bir strategiya uchun yakuniy harakatlar rejasi qanchalik muhim ahamiyatga ega bo'lmasin, Aleksandrda u yo'q edi. Strategiyada ma'lum maqsadlar bo'ladi: masalan, biror joyga bostirib kirsangiz qayerda to'xtash kerakligini va yakunda nimani xohlashingizni bilishingiz lozim.

U Fors urushida azob chekkan greklar uchun qasos olish maqsadida yurish qiladi va oradan to'rt yil o'tib, Aleksandr uzoq asrlar davomida yashab kelgan Fors imperiyasini yo'qqa chiqargan. Eramizdan oldingi 330-yilda u o'zini Osiyo hukmdori

deb atay boshlagan.

Fors imperiyasi egallanganidan keyin Aleksandr armiyasi vataniga qaytmoqchi bo'ladi, ammo Aleksandr jangchilarni Baqtriya va So'g'diyonaga (hozirgi Afg'oniston hududlari) yurish qilishga ko'ndirgan. Bu hujumning ikkinchi fazasi edi. Baqtriya va So'g'diyona egallangach, Aleksandr Hindistonga yurish qiladi. Panjob tekisliklariga kelganida uning armiyasi isyon ko'targan. "Jangchilar yetarlicha yurish qilib bo'ldik, endi uyga qaytamiz!", degan. Ushbu isyon Aleksandrga ham sarkarda, harbiy qo'mondon, ham shoh sifatida ishonchsizlik ramziga aylangandi.

Aleksandr Gangaga yetib borishni orzu qilgan bo'lishi mumkin. Chunki u o'sha yerda yashagan xalqlar haqida ko'p gapirgan. Ammo Ganga egallanganidan keyin ham uning to'xtashiga hech kim kafolat bermagan. Faqatgina isyon uni uyiga qaytishga majbur qilgandi. Aleksandr ortga qaytishni boshlaganida armiya va nihoyat Gretsiyaga qaytayapmiz deb o'ylagan, ammo u Arabiston yarimoroliga hujum haqida gapira boshlagan. U eramizdan oldingi 323-yilda Bobilga yetib kelgan va janubga yurish qilish rejalarini tuzishni boshlagan. Ammo o'sha yilning 12-iyunida Aleksandr vafot etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. R.Rajabov. "qadimgi dunyo tarixi". "Fan va texnologiya" nashriyoti "Toshkent"2009. 286-290 betlar.
2. A.A. Sagdullayev "O'zbekiston darsligi tarixi" 'Donishmand ziyosi' nashriyoti "Toshkent" 2021. 200-205 betlar.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf " Zikr ahlidan so`rang" . "Hilol nashr" nashriyoti. 2018. 2-jild.40-41bet.
4. <https://Daryo.uz/2023/2024/>
5. <https://uz.m.wikipedia.org>.
6. <http://m.aniq.uz>.